

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATEMATIKA
DARSLARIDA MILLIY KONTENT ASOSIDA O‘QITISHNING
AMALIYOTDAGI HOLATI**

Sayfullayeva Madina Baxodir qizi

Namangan davlat pedagogika institute Ta’lim va tarbiya nazariyasi

(Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

E-mail: sayfullayevamadina21@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika darslarida xalq og‘zaki namuna elementlari asosida zamonaviy va milliy darslar uyg‘unlik modeli haqida yozilgan. Boshlang‘ich sinf matematika darslarini milliy kontent asosida tashkil etishning amaliyotdagi holati bo‘yicha yozilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy bilim, bilim, ko‘nikma, malaka, axborot-kommunikaatsiya, texnologiya, maqol, matal, topishmoq, AKT vositalari, individuallik darajasi, milliylik elementlari, ma’naviy-axloqiy mezonlar.

Annotation. This article discusses the practical situation of organizing modern and national content-based lessons for elementary school students based on folk elements in mathematics lessons

Key words: modern knowledge, skills, qualifications, information, technology, proverb, saying, riddle, level of individuality, elements of nationality, spiritual and moral criteria.

Аннотация: в данной статье рассматривается практическая ситуация организации современных и национальных содержательных уроков для учащихся начальной школы с использованием народных элементов в преподавании математики

Ключевые слова: современные знания, знания, навыки, компетентность, информация и коммуникация, технологии, пословица, идиома, загадка, инструменты ИКТ, уровень индивидуальности, национальность, элементы, духовные и моральные критерии

Bugungi kunda barcha o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish lozim. Ta’limda innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib interfaol darslarni tashkil etish bir qator imkoniyatlar beradi:

o‘quvchilarda: fanni o‘rganishga qiziqishni oshiradi; fanni bilish ehtiyojini shakllantiradi; bilish faoliyatini faollashtirish; individuallik darajasini oshiradi;

ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi; AKT vositalarini ishlashga o'rgatadi; o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi; baholash jarayonini optimallashtiradi; tasavvurini kengaytiradi; erkinligini ta'minlaydi;

o'qituvchiga: ko'p sonli o'quvchilarni boshqarishga ko'maklashadi; o'qituvchini o'qitishga bo'lgan qiziqishini oshiradi; shuningdek: o'qituvchi va o'quvchilarning vaqtini tejaydi; imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitish imkoniyatini oshiradi; o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini shakllantiradi; o'qituvchi va o'quvchi orasidagi individual aloqani ta'minlaydi; o'qituvchi o'quvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqasini osonlashtiradi; o'quv materiallar mazmunining xilma-xilligini ta'minlaydi; o'qish va o'qitishni takomillashtiradi; o'quvchilar bilim darajasini aniqlashga yordam beradi; ta'limda ko'rgazmalilikni kuchaytiradi; ta'limda foydalaniladigan o'quv materiallar doirasini kengaytiradi; ta'limda nazariyani amaliyot bilan birga olib borishga yordam beradi; ta'limni masofadan o'qitishni ta'minlaydi; ta'limda reallikni ta'minlaydi¹. Shu bilan birgalikda hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yashayapmiz. Bu rivojlanish ba'zi hollarda inson aqlini shoshirib qo'ymoqda. Shu bilan birgalikda insoniyat olamiga ta'sir qiluvchi turli g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Shuning uchun nafaqat matematika darslarida, balki barcha darslarda ham milliy kontent elementlaridan foydalanish, shu yod g'oyalarga qarshi kurashish maqsadida immunitet hosil qilish uchun tatbiq etilmoqda. Amaldagi darsliklarda milliylik elementlari ishtirokidagi misol va masalalar mavjud. Lekin ularning dars jarayonidagi metodikalari mavjud emas. Hozirda biz ularning metodikalarini keng tarzda yo'lga qo'ya olsak, yoshlarning milliylik ildizlariga qaytara olamiz. Chunki, boshqa millat madaniyatini targ'ib qilayotgan yoshlar milliy ildizlardan qochish holatlariga duch kelmoqdalar. Matematika darslarida milliylik elementlari ishtirok etgan masala namunalari e'tiborimizni qaratamiz.

Masala. Agar sayyoh 3 dona do'ppi sotib olsa, unda 70 000 so'm qoladi. Agar u 5 dona do'ppi sotib olsa, unga 10 000 so'm yetmaydi. Bitta do'ppi necha so'm turadi?²

Masala yechimi. Yuqoridagi masalani bir necha usullar orqali yechsa bo'ladi
1-usul

Sayyohda qanchadir pul mavjud. Sayyoh 3 ta do'ppi olsa uning pullarini 70 000 somi ortib qoladi, agar u 5 ta do'ppi olsa uning pullaridan 10 000 som yetmaydi.

$$5x - 3x = 70\,000 + 10\,000$$

$$2x = 80\,000$$

$$x = 40\,000$$

Demak, bitta do'ppining narxi 40 000 som turadi

¹ Qahhorov, S.Q., Hayitov, U.H. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida innovatsion texnologiyalar [Matn] : o'quv qo'llanma / S.Q. Qahhorov, U.H. Hayitov .-Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durдона, 2022.-184 b.

² Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism / I.V.Repyova. - Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. - 128 b

Yuqoridagi masala milliylik ruhi aks etgan masala hisoblanadi. Bu masala orqali o'quvchilar savdo-sotiq, milliy mazmundagi masala bilan tanishadi. Bundan tashqari matematika darslarida maqol, matal, topishmoq kabi xalq og'zaki namunalaridan foydalanish darslardagi o'quvchilar faolligini ta'minlaydi.

Xalq pedagogikasi manbaa turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: "Maqol" atamasi arabcha "kavlun" – gapirmoq, aytmoq so'zlaridan olingan bo'lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo'nda xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba'zan to'g'ri, ba'zan ko'chma ma'noda ifodalanadi. Maqolda ifodalangan pedagogik g'oyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo'ladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o'z shakliga ko'ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo'ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo'nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma'naviy-axloqiy e'tiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Shuning uchun ham L.N. Tolstoy: "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman", -degan edi. Xalq maqollari mehnat jarayonida yaratilganligi tufayli unda mehnat mavzusi yetakchilik qiladi. Mehnatga muhabbat, hurmat ulug'lanuvchi maqollarda dangasalik qoralanadi:

Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda;

Dangasaning kosasi oqarmas;

Ishyoqmasga it boqmas ...

Vatanparvarlik, dushmanga qarshi nafrat targ'ib etiladi:

Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni;

Vatan gadosi – kafan gadosi;

Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas ...

Topishmoq – deb, bir-biriga o'xshash ikki predmetdan jumboq yasalib, ikkinchisiga xos o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki

nasriy topshiriqqa aytiladi. Masalan: "Bir parcha patir, olamga tatir" topishmog'ida eng to'yimli ozuqa – patir "Oy"ga o'xshatilgan. Oy ham go'zal, tunda olamni munavvar qiladi. Topishmoq atamasi "Top" buyruq fe'li va "ish" hamda "moq" qo'shimchalaridan yasalgan. Topishmoqlarda ham ta'lim-tarbiyaviy fikrlar olg'a suriladi, ular vositasida insonning tafakkuri, fikrlash doirasi, topqirligi, nutqi, hozirjavoblik sifatleri o'stirilgan³

³ M.E.Abdullayev. Xalq pedagogikasi. [o'quv qo'llanma] – —Omadbek print number one| MCHJ. Andijon: 2024. – 147 b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhorov, S.Q., Hayitov, U.H. Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida innovatsion texnologiyalar [Matn] : o‘quv qo‘llanma / S.Q. Qahhorov, U.H. Hayitov .-Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni, 2022.-184 b.
2. Matematika. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism / I.V.Repyova. - Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. - 128 b
3. M.E.Abdullayev. Xalq pedagogikasi. [o‘quv qo‘llanma] – “Omadbek print number one” MCHJ. Andijon: 2024. – 147 b.